

ABU NASR FAROBIYNING ASARLARIDA PEDAGOGIK FIKRLAR**Abdurahmonova Zahro Vahobjon qizi****Qo'qon davlat pedagogika instituti****Pedagogika-psixologiya fakulteti 1-kurs talabasi**<https://doi.org/10.5281/zenodo.7980474>

Annotatsiya: Abu Nasr Farobiyning hayot yo'li va ilm fanga qo'shgan hissalarini haqida go'zal qilib yoritib berilgan. Uning asarlarida qanday pedagogik fikrlar, g'oyalar berilganligi, ta'lim, tarbiya jarayoni to'g'risidagi qarashlariga oydinlik kiritib o'tilgan. Abu Nasr Farobiyning asarlari bugungi zamonaviy ta'limda qanday qo'llanishi haqida aytib berilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, axloq, jamiyat, ilm, fan, madaniyat, g'oya, fikr, qarash, fazilat, qobiliyat, zehn, baxt, kamolot, saodat, tajriba, so'z, qiziqish.

Abu Nasr Farobiy o'z davridagi barcha ilmlarni ilg'or madaniy yutuqlarni o'zlashtirib, ular asosida original ijtimoiy-siyosiy va falsafiy sistemasini olg'a surgan, ta'lim-tarbiya sohasida ham ko'p ilg'or fikrlarni aytib o'tgan, zamonasining mashhur faylasufi, yetuk qomusiy olimi edi. Farobiyning ilmiy biografiasini yaratilmagan, uning hayot yo'li haqida biror maxsus asar yo'q. Farobiyning to'liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Tarxon ibn O'zlik bo'lib, u 260 hijriyda, ya'ni 873-874 milodiy yilda hozirgi Toshkentning g'arbiy-shimolida, Ares suvining Sirdaryoga quyiladigan yerda Farob (so'ngroq O'tror) degan joyda tug'ilgan. Abu Nasr Farobiy boshlang'ich ma'lumotini o'z yurtida oladi, so'ng o'qishini davom ettirish uchun markaziy shaharlarga jo'naydi. U Samarqandda, Buxoro, Marv, Rey shaharlaridan o'tib, Bog'dodga boradi. Bu davrda arab halifaligining markazi Damashqdan yangi qurilgan Bog'dod shahriga ko'chirilgan va Sharqning madaniyati va markazlaridan biriga aylangan edi. Farobiy bilim olish maqsadida diniy tafovud va e'tiqodga e'tibor bermay, arab, fors, grek, xristian olimlaridan ta'lim oladi. Farobiy muallimlari va ustozlaridan ayrimlarining nomi manbalarda saqlanib qolgan. U meditsina va mantiq ilmini Xirron shahriga borib, xristian vrachi Yuxanna ibn Xaylan Kunnoidan, hikmat va grek ilmini xristian Abu Bashar Maytodan o'rganadi. U ayniqsa, nazariy ilmlar mantiq, matematika, nazariy meditsina va falsafaning umumiy masalalari bilan qiziqdi. Farobiy ayniqsa grek falsafasini, xususan, Aristotelning asarlarini izchil va chuqur o'rganib chiqadi. Bog'dodda u arab tilini va boshqa tillarni o'rgandi. Abu Bashar Matta ibn Yunusdan (870-940) yunon tili va falsafasini ham o'rganadi. X asrga kelib arab halifaligining markazi Bog'dod juda notinch bo'lib qoldi. Qo'zg'olonlar feodal urushlari avj oldi. Farobiy Bog'doddan Damashqqa bordi. Olim 941-yildan Damashqda muhtojlikda kun kechira boshlaydi. Shunga qaramay, ilm bilan shug'ullanadi, falsafa va boshqa fanlar sohasida tadqiqot ishlari olib boradi. Manbalarda umumiy Xalab va Misr shaharlariga borganligini ham hikoya qilinadi. Ba'zi manbalarda Farobiyning O'rta Osiyoga kelib ketganligi ham qayd etiladi. Umrining so'nggi yillarida Damashqda Said-ud-Davla saroyida zamonasining elparvar shoiri va mutafakkiri Mutannabiy bilan birga o'tkazdi. U Aleppo (Halab) hokimi Hamdamid (hukmronlik yillari 943—967) iltifoti va hurmatiga erishadi. U olimlarning homiysi sifatida tanilgan edi. Hokim Farobiy o'z saroyiga taklif etadi, lekin, u saroyga bormasdan, erkin hayot kechirishni ma'qul ko'radi. Shunga qaramasdan, allomaning Halabdagi hayoti sermahsul bo'ldi, bu yerda o'zining ko'plab asarlarini yozdi. Farobiy 949—950 yillarda Misrda, so'ngra Damashqda yashaydi va shu yerda umrining oxirgi kunlarini o'tkazadi. U Damashqdagi „Bob as-sag'ir“ qabristoniga dafn etilgan. Mavjud ma'lumotlarga qaraganda, Farobiy 160 dan ortiq asar yozgan. Lekin ularning aksariyati bizgacha yetib kelmagan. Shunga

qaramay, mavjud risolalarining o'ziyoq uning buyuk olim ekanligidan dalolat beradi. Farobiyning asosiy asarlari: „Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida“, „Falsafiy savollar va ularga javoblar“, „Ensiklopediyadan mantiq bo'limining bir qismi“, „Taliqot“ (sharhlar), „Inson a'zolari haqida risola“, „Bo'shliq haqida maqola“, „Donolik asoslari“, „Falsafaning ma'nosi va kelib chiqishi“, „Hayvon a'zolari, funksiyasi va potensiyasi“, „Mantiq to'g'risidagi risolaga muqaddima“, „Mantiq ilmiga kirish“, „Ilmlarning kelib chiqishi haqida“, „Musiqha haqida katta kitob“, „Baxt-saodatga erishuv haqida“, „Masalalar mohiyati“, „Buyuk kishilarning naqlari“, „Ihso al-ulum“, „Hikmat ma'nolari“, „Aql to'g'risida“, „Ilmlar va san'atlar fazilati“, „Qonunlar haqida kitob“, „Substansiya haqida so'z“, „Falak harakatining doimiyligi haqida“, „She'r va qofiyalar haqida so'z“, „Ritorika haqida kitob“, „Hajm va miqdor haqida so'z“, „Musiqha haqida so'z“, „Fizika usullari haqida kitob“, „Fazilatli xulqlar“, „Fozil shahar aholisining fikrlari“, „Jismlar va aksidensiyalarning ibtidosi haqida“, „Aristotel „Metafizika“ kitobining maqsad to'g'risida“ va boshqa.

Farobiy Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari faylasuflari orasida birinchi bo'lib, jamiyatning kelib chiqishi, uning maqsad va vazifalari haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. O'rta asr sharoitida jamiyat tabiiy ravishda kelib chiqqanligini, inson faqat boshqalar yordamida hayot qiyinchiliklariga qarshi kurasha olishi mumkinligini asoslab berdi.

Farobiy inson fazilatlarini tug'ma va yashash jarayonida paydo bo'ladigan fazilatlarga bo'ladi. Olimning fikricha, tug'ma fazilatlarga insonning o'ta o'tkir zehniligi, biror narsani bilishga o'ta qobiliyatsizligi kiradi. Lekin tug'ma fazilatlar hayotda kam uchraydi. Asosiy axloqiy fazilatlarni odam yashash davomida egallaydi. Tug'ma fazilatli odamlar ham tarbiyaga muhtoj. Agar unday odamni tarbiyalab va to'g'ri yo'lga solib turilmasa, uning qobiliyati tezda so'nib qolishi mumkin. Tug'ma qobiliyat ham nisbiy tushunchadir. Ba'zi kishilar tug'ma qobiliyatini ishga solib yaxshi natijaga erishsa, boshqalari yomon natijaga erishadi. «Baxt-saodatga erishuv haqida» nomli risolasida bilimlarni o'rganish tartibi birma-bir sanab o'tiladi. «Bundan keyin,-deb davom etadi Farobiy-insonni o'rganishga kirishamiz va shuning natijasida insonning kim va qanday narsa ekanligini bilib aniqlab olamiz. Shundan keyin biz insonning kamolotga erishuviga sabab bo'lgan narsalarni o'rganishga boshlaymiz. Bu narsalar esa xayri-ehsonli ishlar, go'zal insoniy fazilatlar bo'lib, bu fazilatlarni insonni shu kamolotga erishuvidan mahrum qiladigan salbiy xislatlarni o'rganish yo'li bilan ajratib olamiz. Bu salbiy xislatlar har turli yomon odatlar, nuqsonlar va bema'ni hatti-harakatlardir. Biz bu yomon xulq-atvor, bema'ni hatti-harakatlarning o'zi bilan tanishib chiqamiz». Farobiy «Ixso al-ulum» (Ilmlarning tartibi) asarida ham o'rta asrda ma'lum bo'lgan barcha ilmlarni sanab o'tar ekan, madaniy ilmlarni, ya'ni insonning ijtimoiy hayoti to'g'risidagi ilmlarni barcha boshqa ilmlardan, grammatika, logika, matematika (falsafa) ilmlaridan so'ng tahlil qiladi va xarakterlab beradi. U barcha ob'ektiv reallikdagi narsa hodisalarning vujudga kelish tartibi, materiyaning rivojlanish tartibi asosida tartibga solib chiqishga harakat qiladi. «Aql va nafs», -deb yozadi Farobiy. «Baxt-saodatga erishuv to'g'risida» degan risolasida,-o'zining cheksiz kamoloti bilan borliqda inson bilan gavdalanadi, ammo bu boshlang'ichlar odamzotning shu tabiiy boshlang'ichlar ta'siri ostida kamol topib, insonga aylanishi uchun kifoya qilmaydi. Chunki inson inson bo'lib, insoniy kamolotga erishuvi uchun so'zlash va kasb-hunarga muhtojdir. Inson bilimi, umumiydunyoqarashning o'zgarishida tarbiyaning rolini ta'kidlab, Farobiy «Ixso al-ulum» asarida bunday deydi: «Inson yaxshi tarbiya ko'rmagan va turmushda tajriba orttirmagan bo'lsa, u ko'p narsalarni nazarga ilmaydi va ulardan jirkanadi. Bunday

narsalar noo'rin ko'rinadi ... U bilim va tajribaga ega bo'lganidan so'ng, fikri o'zgaradi, noo'rin bo'lib ko'ringan narsalar zaruriy bo'lib chiqadi». Farobiy insonning ma'naviy hayotida, asosan uning ikki tomoniga-aqli-axloqiga (xulq-atvoriga) e'tibor beradi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya, uning fikricha insonni aqliy tomonidan ham yetuk, mukammal kishi qilib yetishtirishga qaratilmog'i lozim: demak, ta'lim-tarbiyaning bir-biridan vazifasi-jamiyat talablariga to'lato'kis javob bera oladigan va uni bir butunlikda, tinchlikda farovonlikda saqlab turish uchun xizmat qiladigan ideal inson tayyorlashdir. Farobiyning «Ideal shahar aholisining fikrlari» hamda «Baxt-saodatga erishuv haqida» nomli risolalarida shular to'g'risidagi fikr yuritiladi, bu risolalar aqliy va axloqiy jihatdan yetuk, ideal insonlar yetishtirish va yetuk, ideal insonlardan iborat ideal jamiyat vujudga keltirish vazifalarini bayon qilish bilan yakunlanadi. Farobiyning insonning ma'naviy jihatdan yetuk va mukammal bo'lib yetilishi zarur bo'lgan tarbiya turlari, xususan jismoniy-tarbiya, aqliy intellektual tarbiya, estetik va axloqiy tarbiya haqidagi fikrlarga alohida to'xtalib o'tishdan avval uning umuman ijobiy insoniy xislatlari nimadan iborat ekanligi, bu xislatlarni tarbiyalash usullari, tarbiya etiladigan insonning fazilatlarini to'g'risidagi fikrlarni ko'rib o'tish lozim. Farobiy «Baxt-saodatga erishuv haqida» nomli risolasida xususan pedagogika, ta'lim-tarbiyaning vazifasi va metodlariga oid qimmatli fikrlar juda ko'p. Bu fikrlardan ma'lum xulosalar chiqarishdan avval Farobiy pedagogikasi haqida ma'lum darajada izchil tasavvurga ega bo'lish uchun ulardan ayrimlarini to'liq keltirishni lozim ko'rdik. Farobiy insoniy quvvatlar va ularning vujudga kelishi hamda bunda tarbiyaning ahamiyati haqida to'xtab bunday deb yozadi: fikriy fazilat yordamida sodir bo'ladigan narsa kashf ixtirosining sifatida qarab, o'ta ketgan foydali va go'zal bo'lishi mumkin. Chunki odatda, go'zal va manfaatli ish-harakatining o'zi ham yaxshi fazilatdir, o'ta ketgan foydali narsa esa g'oyatda go'zal hamdir. Mana bu fikriy fazilat madaniy (ya'ni ijtimoiy) fikriy fazilatdir. Fikriy quvvat ham qismlarga bo'linadi, masalan, fikriy fazilat natijasida vaqti-vaqti bilan bir yangilik yoki eng go'zal va foydali biron narsani kashf etuvchi quvvat mana shu quvvatlar jumlasidandir. Insonda ma'lum kasb-hunar fazilati raislik qiladi va bu mazkur san'at (yoki kasb-hunar) shunday san'at-ki, uni yuzaga chiqarish uchun unga muvofiq tushadigan hamma narsa ish-harakatni demak, hamma san'atlarda bo'ladigan usul va harakatlarini qo'llamasdan ilojimiz yo'q. Demak, bu san'at barcha san'atlarning boshlig'i, kasb-hunar fazilatlarini ichida eng kuchlisi, quvvatda ham boshqa hamma san'atlarning kuchlirog'i. Bolalar ustida turgan odam esa muallim bo'lib, u bolalarga tarbiya berishda turli tarbiya usulidan foydalanadi». Tarbiyalanuvchining xarakteri, hohish, intilishlarga, ruhiy mayllariga qarab ta'lim-tarbiya yo'q asta-sekin tushuntirish, anglatish yo'li bilan olib boriladi, yoki majburiy etish, chora ko'rish, mo'ljallangan maqsadga bo'ysundirish va unga yo'naltirish yo'li bilan olib boriladi. Bu har ikki metod ham bir maqsadni-etuk va mukammal inson etishtirishni nazarda tutadi. Farobiyning ta'lim-tarbiya metodlari haqidagi fikrlari bu bilangina chegaralanmaydi. Farobiy hatto muallim va shogird-o'quvchi o'rtasidagi munosabatning nimaga asoslanishi va qanday bo'lishligi haqida ham fikr yuritadi va etuk inson tarbiyalab etishtirishning eng natijali yo'lini qidiradi. Farobiyning «Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida» risolasidagi quyidagi fikrlar bu jihatdan e'tiborga loyiqdir: «Muallim shogirdga nisbatan o'ta hokimlikka ham, bo'shlikka ham yo'l qo'ymasligi lozim, chunki o'ta hokimlik shogird muallimga nisbatan nafrat uyg'otadi, agarda shogird muallimning bo'shligini sezsa, unda muallimga va uning o'qiyotgan ilmiga nisbatan so'vish va mensimaslik paydo bo'ladi». Insonni har tomonlama mukammal qilib etishtirish unda ijobiy xislatlar tarbiyalash shu yuqorida

ko'rsatilgan yo'llar yordamida salbiy xislatlarning ta'siriga qarshi kurash natijasida amalga oshiriladi.

(Birinchiidan), bunday odamning barcha organlari shu darajada mukammal taraqqiy etgan bo'lishi zarurki, u bu organlari bilan bajarmoqchi bo'lgan ishlarni osonlik

(Ikkinchiidan), barcha masalani, muhokama va mulohazani tezda va to'g'ri tushuna oladigan, uning ma'nosini anglay oladigan;

(Uchinchiidan), xotirasi juda baquvvat bo'lsin, ko'rgan, eshitgan, sezgan narsalarning birortasini ham esidan chiqarmay yodda saqlab qoladigan bo'lsin;

(To'rtinchiidan), zehni tez va o'tkir bo'lsin;

(Beshinchiidan), so'zlari aniq bo'lsin, fikrini va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarni ravon va ravshan bayon eta olsin;

(Oltinchiidan), bilish va o'qishga muhabbati bo'lsin;

(Yettinchiidan), ovqatlanishda, ichimlik iste'mol qilishda ochko'z bo'lmasin, tabiati qimor o'yinlarini o'ynashdan yiroq bo'lsin;

(Sakkizinchiidan), haqiqatni va haqiqat tarafdorlarini sevadigan bo'lsin, yolg'on va yolg'onchilarga, nafrat bilan qaraydigan bo'lsin.

(To'qqizinchiidan), ruhi g'ururli va o'z vijdonini qadrlaydigan bo'lsin;

(O'ninchiidan), dirham, dinar va shu kabi turmush buyumlariga jirkanish bilan qarasin;

(O'n birinchiidan), o'z tabiati bilan adolatli va adolat uchun kurashuvchilarni sevadigan, adolatsizlikka hamda jabr-zulm o'tkazuvchilarga nafrat bilan qaraydigan bo'lsin;

(O'n ikkinchiidan), adolatli bo'lsin va qaysar bo'lmasin, adolat oldida qaysarlik qilib o'zbilarmonlik qilmasin, jasur bo'lsin, qo'rqish va ojizlikni bilmasin. Forobiy bu fazilatlar ichida ayniqsa donolikka, aqllilikka katta e'tibor beradi. Forobiy estetik tarbiya haqida qimmatli fikrlar ilgari so'radi. «Muzika to'g'risidagi katta asar» kitobida muzikaning kishilar hayotidagi rolini asoslab beradi. Estetik zavqlanishning ruhiy jismni salomatlikni saqlashdagi tutgan o'rnini ko'rsatishga harakat qiladi. U mehnat tarbiyasi va kasbiy tarbiyaning kishining hayotidagi o'rnini ulug'lab uni «fazilatlarining raisidir» deb baholaydi: «Insonda ma'lum kasb-hunar fazilati raislik qiladi»-deb yozadi. «Endi insonning kasb-hunar va san'atdagi fazilatiga kelsak, bu fazilat tug'ma emasdir». Bu ikki yo'l bilan, ya'ni ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi.

Biz bilamizki, Abu Nasr Farobiyi dunyoda „Sharq arastusi“, „Ikkinchi muallim“ deb atashadi. Lekin biz Farobiyi hayotini, asarlarini o'rganib, uni ta'limotiga baho berar ekanmiz, uni bunday nomlar bilan atash qaysidir, ma'noda kamsitilish bo'lishi mumkin. Chunki Farobiy ijtimoiy-siyosiy qarashlarida Aflotun va Aristotel qarashlaridan yuqoriroq, ulardan ko'ra insonparvarroq va shu bilan birga gnealroq fikrlarni taqdim etgan va uni ijodi o'z davridan keyin ikkinchi Sharq uyg'onish davrini ya'ni XIV-XV asr Markaziy Osiyo Sharq uyg'onish davriga juda katta manbaviy asos bo'ldi. Abu Nasr Farobiy asarlarini o'rganar ekanmiz, O'zbekiston ta'lim tizimida uning asarlari, risolalari darsliklardagi o'quv qo'llanma sifatida yuritiladi. Nafaqat ta'limda balki, musiqa va san'atda ham uning yozib qoldirgan asarlari 85, 90% maqomchiligimizda ulardan foydalanib kelinmoqda.

References:

1. Abu Abdulloh idn Ismoil Al-Buxoriy. "Al-adab al-mufrad" - T.: O'zbekiston, 1990
2. Hoshimov K. Nishonova S Pedagogika tarixi. Darslik -T: O'qituvchi, 2005 yil.

3. Mansurov A., Jo'rayev., Lafasov., M Hadis ilmi saboqlari.-T.:1999, Go fur Gulom nashriyoti.
4. O'tkir Yo'ldoshev, Adxam Abdurashidov "Umumiy pedagogika" 2021- yil Farg'ona nashriyoti
5. Yo'ldoshev, O'Tkir Jumaqo'Zievich. "PEDAGOGIK FANLARNI LOYIHALASH USULI ASOSIDA O 'QITISH METODIKASI." Academic research in educational sciences 4.KSPI Conference 1 (2023): 98-102.
6. Yo'ldoshev, O'Tkir Jumaqo'Zievich. "KOMMUNIKATIV DIDAKTIKA: MOHIYAT VA MAZMUN." Academic research in educational sciences 4.KSPI Conference 1 (2023): 79-82.
7. Yo'ldoshev, O'Tkir Jumaqo'Zievich. "PEDAGOGIKA METODOLOGIYASIDA TIZIMLI VA MADANIYATLI YONDOSHUV." Academic research in educational sciences 4.KSPI Conference 1 (2023): 43-46.
8. Jumaqozievich, Yuldashev Utkir. "Systematic approach in education as a methodological problem." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 11.09 (2022): 269-271.
9. Yuldoshev, Utkir, and Uktamjon Zhumankuziev. "Determination of the leading pedagogical laws and fundamental principles of the formation of the information culture of school-age children." Society and Innovation 2: 68-76.
10. Жуманкузиев, Уктамжон, and Уткир Йулдошев. "Подходы обучения языкам программирования в общеобразовательных школах." Общество и инновации 2.5/S (2021): 344-350.
11. Йулдошев, Уткир, and Уктамжон Жуманкузиев. "Определение ведущих педагогических закономерностей и основополагающих принципов формирования информационной культуры детей школьного возраста." Общество и инновации 2.5/S (2021): 68-76.
12. Zhumakuzievich, Yuldoshev Utkir. "FOLLOWING THE PRINCIPLES OF COMMUNICATION IN COMMUNICATIVE DIDACTICS." Open Access Repository 8.12 (2022): 573-575.
13. Jumakuziyevich, Yuldoshev Utkir. "Pedagogy Methodology As The Basis For The Formation Of Teacher Methodological Culture." Journal of Positive School Psychology 6.11 (2022): 2019-2022.
14. Mansurjonovich, J. M., and Y. S. Sattorovich. "MAXSUS IZLAMALARDAN FOYDALANISH TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHNING MUHIM AVTOZYATLARI." Ochiq kirish ombori 4.3 (2023): 126-133.
15. Mansurjonovich, Juraev Muzaffarjon, and Yuldashev Sherzod Sattorovich. "IMPORTANT ADVANTAGES OF ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS USING SPECIAL APPLICATIONS." Open Access Repository 4.3 (2023): 126-133.
16. Mansurjonovich, Juraev Muzaffarjon, and Rakhimov Jorabek Rashidjan o'g'li. "DESIGNING THE STRATEGY OF STUDENT INDIVIDUALITY IN INDEPENDENT RESEARCH ACTIVITY." Open Access Repository 9.4 (2023): 433-437.
17. Jo'Rayev, Muzaffarjon Mansurjonovich. "KIBER PEDAGOGIKA-XXI ASRDA RAQAMLI TA'LIM MUHITI PEDAGOGIKASI." Academic research in educational sciences 4.KSPI Conference 1 (2023): 103-110.

18. Mansurjonovich, Juraev Muzaffarjon, and Muzaffar Mansurovich Botirov. "Characteristics Of Teaching Programming Based On Different Principles." Eurasian Journal of Engineering and Technology 17 (2023): 85-90.
19. Mansurjonovich, J. M. "Methodological foundations for improving the content of training future ict teachers in the conditions of digital transformation of education." Актуальные вопросы современной науки и образования 9 (2022).
20. Juraev, Muzaffarjon Mansurjonovich. "Pedagogical conditions for the development of vocational education through interdisciplinary integration into the vocational education system." НАУКА, ОБРАЗОВАНИЕ, ОБЩЕСТВО: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ДОСТИЖЕНИЯ И ИННОВАЦИИ. 2021.
21. Mansurjonovich, Juraev Muzaffarjon. "Professional Educational Institutions Theoretical and Practical Basis of Development of the Content of Pedagogical Activity of Teachers of" Information and Information Technologies"." Open Access Repository 9.12 (2022): 85-89.
22. Mansurjonovich, Juraev Muzaffarjon. "CURRENT STATUS OF THE SCIENCE OF INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE PROFESSIONAL EDUCATION SYSTEM, EXISTING PROBLEMS AND SOLUTIONS, PRINCIPLES AND CONTENT OF THE SCIENCE ORGANIZATION." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 327-331.
23. Xudayberdiyev, Zayniddin Yavkachevich, and Muzaffarjon Mansurjonovich Juraev. "Theoretical analysis of the continuity model of computer science and information technology in the system of professional education." (2021).
24. Mansurjonovich, Juraev Muzaffarjon. "Description of the Methodological Basis for Ensuring Interdisciplinary Continuity of the Subject" Computer Science and Information TECHNOLOGY" in Vocational Education." JournalNX 7.10: 223-225.